

## AVTOTRANSPORT KORXONLARIDA HARAKAT XAVFSIZLIGINI OSHIRISH TALABLARI.

**Nazarova Mashxura Saparbayevna**

*Toshkent Davlat Transport universiteti assistent*

**Annotatsiya:** *O'zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish xavfsizligini ta'minlash yo'l transpord hodisalarining oldini olish va bu borada yagona davlat siyosatini yuritish, yo'l harakati koidalarini xalkaro «Yo'l harakati haqidagi» konvensiya talablariga muvofiqlashtirish maqsadida hamda «Yo'l harakati xavfsizligi» to'g'risidagi Qonunning 5-moddasiga asosan vazirlar mahkamasi muntazam ravishda «Yo'l harakati qoidalari» ko'rib chiqadi .*


*«Yo'l harakati qoidalari» asosida vazirliklar, davlat qo'mitalari, korrupsiyalar, uyushmalar, konsernlar va boshqa tashkilotlar va muassasalar, Qoraqalrog'iston Respublikasi Yuqori kengashi, viloyatlar, shaharlar, xokimliklar yo'l harakatini tashkil etishi bilan bog'lik bo'lgan barcha ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilaydilar, hamda u yo'l harakati tartiblarini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *avtomobil, korxonalar, yo'lovchi, xavfsizlik, faoliyat, harakat, kesishma, yth;*


Tahlil va natijalar; Avtomobil transpordida tashuv ishlarini amalga oshirishda harakat xavfsizligini ta'minlash holati tahlilini «Toshshahartransxizmat» AJ tarkibidagi korxonalar faoliyati misolida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (ma'lumotlar bazasi shakllangan).

Avtomobilda tashuvchida yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hukumatimiz tomonidan qator talablar qo'yilgan. Yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlashda asosiy javobgarlik haydovchilar zimmasida bo'ladi. Yo'lovchilarni tashish jarayoni xavfsizligini ta'minlash uchun aniq tadbirlar belgilashda asosiy tayanch ko'rsatma sifatida harakat xavfsizligi ko'rsatkichlarini har taraflama chuqur va ob'ektiv tahlil qilish natijalaridan olingan xulosalardan foydalaniladi.

Yo'lovchilar majburiyatlarini va qo'yilgan talablarni bajarmasliklari oqibatida yo'l-transpord hodisalarining sodir bo'lishini amaliyot isbotlagan. Ammo yo'lovchi tashuvchi transpord vositasi yo'l-transpord hodisalarini sodir etganda yoki uning ishtirokchisiga aylanganda ham yo'lovchilar katta jismoniy va ma'naviy talofat ko'rishadi. Shu sababli ham yo'lovchi tashuvchi transpord vositasi qaysi transpord korxonasiga tegishli bo'lsa, shu korxonada harakat xavfsizligi ko'rsatkichlarini o'rganish va tegishli tadbirlar ishlab chiqish yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlashning asosiy mezonlaridan biridir.



1-rasm. 2021-2022 yillarda avtobuslar bilan sodir bo'lgan yo'l transrort hodisalari tahlili




2- rasm. 2021-2022 yillarda avtobus haydovchilar aybi va aybsiz sodir etilgan yo'l transrort hodisalari tahlili

YTHlarining sutka soatlari bo'yicha taqsimlanishi tahlilidan eng ko'r YTHlari ertalabki "tig'iz soat" da sodir etilishi aniqlandi va soat 9:00-10:00 atrofida mos ravishda 9-10 %ni tashkil etmoqda (2.1.3-rasm). Mazkur holatni quyidagicha izohlash mumkin, ertalabki "tig'iz soat" jarayoni uzoq cho'zilmaydi, ya'ni, o'qish va ishga boruvchi aholi ko'cha-yo'l tarmoqlarida bir raytda, taxminan 2 soat davomida harakatlanishadi. Kechki "tig'iz soat" esa, nisbatan uzoqroq davom etadi, ya'ni, o'qish va ishdan qaytadigan aholi qatlami turli vaqtlarda qaytishadi. Shu sababli, kechki soatlarda sodir

etilgan YTHlari miqdori yoyiluvchan ko'rinishga ega bo'lmoqda (har soatda umumiy YTHdan – 7-8% miqdorida).

YTHlarining haydovchining yoshi bo'yicha tahlili YTHlarining miqdori haydovchilarning yoshiga deyarli rrororsional ravishda o'zgarishini ko'rsatdi. Umumiy YTHning 21,7 % – 25-30 yoshli haydovchilar hissasiga to'g'ri kelmoqda, 30-35 yoshlilar esa – umumiy YTHdan – 16,7 %ni sodir etgan. Haydovchilarning yoshi kattalashgan sari, ularning umumiy YTHdagi ulushi ham kamayib bormoqda, 50-55 va 55-60 yoshli haydovchilar umumiy YTHning 5,8 %ni, 60-65 yoshli haydovchilar – 1,7 %ni sodir etgan. Natijalarni haydovchilarning tajribalari, rsixologik jihatdan yoshlarning qiziqqonligi, yoshi kattalarning bosiqqligi bilan izohlash mumkin.



3-rasm. Toshkent shahrida so'nggi 5 yilda yo'nalishli avtobuslar ishtirokida sodir etilgan YTHlarining haydovchining yoshi bo'yicha tahlili

YTH sodir etilishining haydovchilar ish stajlari bo'yicha tahlilidan ish stajlari yuqorilashgan sari, YTHlar miqdori ham kamayish holati kuzatildidi (2.1.6-rasm). Eng ko'r YTHlari sodir etilish holatlari 0-5, 5-10, 10-15 va 15-20 yil ish stajiga ega haydovchilarda kuzatildi va mos ravishda 24,4, 31,7, 22, 12,2 %ni tashkil etdi. Haydovchilarning ish staji ortib borishi bilan ularning yo'llarda avtobusni boshqarishda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tajribasi ham ortib boradi va natijada YTHni kamroq sodir etadi.

«Toshshaxartransxizmat» aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi korxonalar haydovchilari ishtirokida Toshkent shahrida sodir etilgan yo'l-transpord hodisalari 2021 yil yakunlari bo'yicha ko'rsatkichlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 42 tani tashkil etib, uning 40 tasi shu korxonalar haydovchilari aybi bilan sodir bo'lgan. Oqibatda 2 kishi hayotdan ko'z yumgan va 44 kishi turli darajadagi tan jarohatlarini olgan. Bu statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonalar haydovchilari bilan jiddiy rprofilaktika ishlarini olib borish kerak.

«Toshshaxartransxizmat» AJ tarkibidagi korxonalar haydovchilari ishtirokida Toshkent shahrida sodir etilgan yo'l-transpord xodisalari 2021 yil yakunlari bo'yicha 45 ta YTH, 2022 yilda esa 37 ta YTHda ishtirok etib, 2021 yilda 42sida aybdor bo'lib, uning oqibatida 1 kishi hayotdan ko'z yumib, 44 kishi turli darajadagi tan jarohatlarini olgan. 2022 yildagi YTHlarning 28tasida aybdor bo'lib-bu o'tgan yilga nisbatan 14ta kamdir-oqibatda 1 kishi hayotdan ko'z yumib, 50 kishi turli darajadagi tan jarohatlarini olgan.

YTH larning oldini olish bo'yicha uning nima sababdan sodir etilganligini bilishimiz lozim. Bu ko'rsatkich - Yo'l harakati qoidalarining shu korxonalar haydovchilari tomonidan buzilishidir.

#### ADABIYOTLAR:

1. S Utkirov, E Abdusamatov, B Raxmanov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Евразийский журнал академических исследований 3 (2 Part 2) 57-65. <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/10161>

2. Э Абдусаматов, Н Турсунов, Ш Ўткиров (2023). ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO 1 (6) 84-88. <https://interonconf.org/index.php/sues/article/download/1948/1753>

3. S Utkirov (2023). YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA YANGICHA MEKANIZMLARNI ISHLAB CHIQUISH. Академические исследования в современной науке 2 (4) 71-73. <http://econferences.ru/index.php/arims/article/view/4075>

4. D Abdurazakova, S Utkirov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Science and innovation in the education system 2 (4), 8-10. <http://econferences.ru/index.php/sies/article/download/5003/2858>